

V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste'mol mollari bilan to'ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o'sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug'urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo'q.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 25 994,9 mlrd. so'mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 7 687,2 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 29,6 %ini tashkil qildi. 2021- yil yanvar-dekabr nisbatan o'sish sur'ati 113,2 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-dekabr oylarida)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Jami xizmatlar:	25 994,9	113,2	100,0
<i>shu jumladan, xizmat turlari bo'yicha:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	844,1	128,0	3,2
Moliyaviy xizmatlar	3 473,6	128,6	13,4
Transport xizmatlari	5 946,4	107,1	22,9
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	5 513,9	106,1	21,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 039,5	108,9	4,0


	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabrga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Savdo xizmatlari	8 690,1	112,2	33,4
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	816,6	115,9	3,1
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	710,1	127,5	2,7
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	659,1	126,8	2,5
Ijara xizmatlari	796,5	115,4	3,1
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta‘mirlash xizmatlari	570,1	112,9	2,2
Shaxsiy xizmatlar	777,1	108,8	3,0
Me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	588,5	60,1	2,3
Boshqa xizmatlar	1 083,2	149,9	4,2

Yuqori o‘shish boshqa sohadagi xizmatlarda (49,9 %), moliyaviy xizmatlarda (28,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (28,0 %), ta‘lim sohasidagi xizmatlarda (27,5 %) hamda sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (26,8 %) qayd etildi.

Aksincha, me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlarda (39,9 %) pasayish qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo‘lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo‘yicha o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shish sur‘atlarining o‘shishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining tarkibi
(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 33,4 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,9 %) hamda moliyaviy xizmatlarda (13,4 %) qayd etildi. Boshqa xizmatlarda uncha katta bo'lmagan o'sish kuzatilib ularning ulushi 4,2 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'lmagan ulush yashash va ovqatlanish xizmatlarida (4,0 %) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (3,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Savdo xizmatlari tarkibi, %da
(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)




2022- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi viloyat bo'yicha umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i 70,1 %ini tashkil etdi (2021- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 70,4 %ga to'g'ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 20,2 %ni tashkil etdi (2021- yilning mos davrida ulgurji savdo xizmatlari ulushi 19,7 %ga to'g'ri kelgan).

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 9,7 %ni tashkil qildi (2021- yilning mos davrida avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining ulushi 9,9 %ga to'g'ri kelgan).

**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan, %da**
(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)




Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bo'stonliq (120,4), Toshkent (119,7), Yuqori Chirchiq (119,4 %), Zangiota (119,2 %) tumanlarida hamda Olmaliq shahrida (119,7 %) qayd etildi.

Aksincha, ushbu davr mobaynida eng past o'sish sur'atlari Bo'ka (112,4 %), Yangiyo'l (112,4 %), Piskent (112,3 %) tumanlarida hamda Nurafshon shahrida (111,0 %) qayd etildi.

Qibray tumanida (84,8 %) esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan keskin pasayish qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da
(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yuqori o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar (149,9 %), moliyaviy xizmatlar (128,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (128,0 %)da qayd etildi. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar shaxsiy xizmatlar (108,8 %), transport xizmatlari (107,1 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (60,1 %)da qayd etildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (165,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (155,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (130,9 %)da yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar transport xizmatlari (117,5 %), moliyaviy xizmatlar (114,5 %) hamda savdo xizmatlari (109,7 %)da qayd etilgan.


2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan
xizmatlar hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2021- yil yanvar- dekabrga nisbatan %da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da	ming so'm	2021- yil yanvar- dekabrga nisbatan %da
Viloyat bo'yicha	25 994,9	113,2	100,0	8 763,7	111,2
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	1 099,0	111,0	4,2	20 580,1	108,3
Olmaliq	1 934,3	119,7	7,4	14 139,5	117,5
Angren	1 705,0	114,7	6,6	9 660,2	112,3
Bekobod	1 258,8	116,6	4,8	12 462,9	114,7
Ohangaron	525,7	113,3	2,0	13 012,5	110,8
Chirchiq	2 178,3	113,8	8,4	13 090,8	112,0
Yangiyo'l	1 164,1	112,8	4,5	14 389,4	110,3
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo'rg'on	685,4	112,6	2,6	6 277,0	110,6
Ohangaron	390,0	113,2	1,5	3 607,3	111,4
Bekobod	768,9	114,4	3,0	4 755,3	112,5
Bo'stonliq	1 689,8	120,4	6,5	9 711,6	119,1
Bo'ka	712,8	112,4	2,7	5 424,7	110,4
Quyichirchiq	615,5	117,5	2,4	5 442,1	115,3
Zangiota	2 679,3	119,2	10,3	16 014,7	119,3
Yuqori Chirchiq	1 045,7	119,4	4,0	7 694,8	116,2
Qibray	1 791,2	84,8	6,9	10 377,9	83,7
Parkent	1 000,9	115,0	3,9	5 762,4	113,0
Piskent	411,5	112,3	1,6	3 945,3	110,6
O'rta Chirchiq	878,7	115,6	3,4	6 557,4	114,4
Chinoz	740,3	117,1	2,8	5 254,2	114,4
Yangiyo'l	1 232,4	112,4	4,7	6 339,4	110,0
Toshkent	1 487,3	119,7	5,8	7 819,6	116,7

2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Zangiota tumanida qayd etildi – (10,3 %) (2021- yilning mos davrida – 9,8 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkich Ohangaron tumanida – 1,5 % (2021- yilning mos davrida – 1,5 %) qayd etildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 8763,7 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘shish sur‘ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 111,2 %ni tashkil etdi.


2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘shish sur‘ati, %da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori ko‘rsatkichlar Zangiota (119,3 %), Bo‘stonliq (119,1 %), Toshkent (116,7 %) va Yuqori Chirchiq (116,2 %) tumanlarida hamda Olmaliq (117,5 %) shahrida qayd etildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Nurafshon shahrida (108,3 %) va Qibray tumanida (83,7 %) qayd etildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm




Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar hajmi Nurafshon shahrida – 20 580,1 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,3 %), Zangiota tumanida – 16 014,7 ming so'mni (119,3 %) va Yangiyo'l shahrida – 14 389,4 ming so'mni (110,3 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng past xizmatlar ulushi Bekobod tumanida – 4 755,3 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,5 %), Piskent tumanida – 3 945,3 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,6 %) va Ohangaron tumanida – 3 607,3 ming so'mni (o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 111,4 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
faoliyatining ulushi, %da**

(2022- yil yanvar-dekabr oylarida)



2022- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 68,6 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Bo‘ka (83,8 %), Oqqo‘rg‘on (83,2 %) tumanlariga hamda Yangiyo‘l shahriga (82,6 %) to‘g‘ri keldi.

Aksincha, eng past ulush Zangiota (57,0 %), Quyi Chirchiq (56,1 %) tumanlarida hamda Nurafshon shahrida (29,9 %) kuzatildi.